



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> May 2025

---

## **TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O‘RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI**

Ma’rufov Sherzod Komil o‘g‘li  
GulDU “Tarix” kafedrası o‘qituvchisi  
[sherzodmarufov1@gmail.com](mailto:sherzodmarufov1@gmail.com)

Abdumatov Alisher Axmatkulovich  
GulDU “Tarix” kafedrası o‘qituvchisi

Galiyev Salavat Vildanovich  
GulDU “Tarix” kafedrası o‘qituvchisi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada VI asrning ikkinchi yarmida Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya hududlarida shakllangan Turk qabilalar ittifoqining siyosiy kuchga aylanishi, Turk Xoqonligining tashkil topishi va uning O‘rta Osiyo hamda Evrosiyo tarixidagi o‘rni yoritib beriladi. Maqolada asosiy e‘tibor Turk Xoqonligining tashqi siyosati, Eron va Vizantiya bilan bo‘lgan diplomatik aloqalari, Buyuk Ipak yo‘li ustidan nazoratni qo‘lga kiritish yo‘lidagi harakatlariga qaratilgan. Shuningdek, hoqonlikning ichki siyosiy tuzilmasi, harbiy yurishlari, manbalarda keltirilgan rivoyatlar hamda ilk turkiy etnik nomlarning shakllanishi masalalari tahlil qilinadi. Manba sifatida Vizantiya, Xitoy, arab va turkiy tarixchilarining asarlari, shuningdek, Urxun-Enisey yozuvlari asos qilib olingan.

**Kalit so‘zlar:** Turk Xoqonligi, Bumin hoqon, Istami hoqon, Buyuk Ipak yo‘li, Eron-Vizantiya-Turk ittifoqi, So‘g‘diyalar, Eftalitlar, Turk qabilalari, runik yozuvlar, urushlar va diplomatiya, O‘rta Osiyo tarixi.

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya ya‘ni, Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Xalklarimiz davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Turk hoqonligi xususida talaygina manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> May 2025

ayrimlari bir-birini inkor etadi. Ushbu manbalar VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari, epigrafik yodgorliklar - Urxo'n-Enisey, runiy yozuvlari, Xitoyning "Tan xonadoni tarixi" qabilardir. Undan tashqari o'rta asrlar mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy, Narshaxiyalar asarlarida ham Turk xoqonligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Ta'kidlash joizki turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542 yilga to'g'ri keladi. Turli manbalarda turklar "turk el", "turk", "turkash", "tukdus", "tu-kyu", "tuk-yut" kabi nomlar bilan tilga olinadi. **Kuchli, baquvvat, botir** kabi ma'nolarni anglatuvchi "turk" atamasi dastavval etnik xususiyatga ega bo'lmay ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan. Turklarning kelib chiqishi xususida ko'plab afsonalar mavjuddir. Ayrim afsonalarda turklarning kelib chiqishi Nuh paygambarga borib taqalsa, ayrimlarida ular o'n yashar bola va ona bo'ridan tarqalganligi ta'kidlanadi. Yana boshqa bir afsonaga ko'ra, turk qabilasining ajdodlari Oltoyning shimoliy yon bag'irlarida joylashgan So viloyatidan kelib chiqqan bo'lib, bu erdagi qabila boshlig'i Abanbu ularning ilk yo'l boshchisi bo'lgan.

Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Turk xoqonligining paydo bo'lishi 551-552 yillarga to'g'ri keladi. Dastavval, turklarning Ashin urug'idan bo'lgan Asan (Asyan, Asyan-shod) va Tuu turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning ug'li Bumin (Xitoycha Tumin) qo'shni Tele qabilasini o'ziga bo'ysundirib ancha kuchayishga muvaffaq bo'ladi. Bu paytga kelib anchagina mustahkamlangan Bumin boshchiligidagi qabilalar ittifoqi Oltoydagi o'zlari qaram bo'lib turgan jujan (juan-juan)lar qabilalariga qarshi kurash boshlab 551 yilda (ayrim adabiyotlarda 552 yilda) ularni tor-mor etadilar. Mana shu davrdan boshlab turkiy hukmdorlar o'zlarini jujanlar egallab turgan erlarning xakikiy egalari hamda jujanlarning mavqei va kuch-qudratining vorislari sifatida Anaguy xoqon (kag'an) unvonini kabul qiladilar. Jujanlar hukmdori Anaguy joniga qasd qilib o'zini o'ldiradi.

551 yilda Bumin Turk elining xoqoni sifatida oq kigizga o'tkazilib ko'tariladi. Ammo, 552 yilda Bumin to'satdan vafot etib uning o'rniga ukasi Istami taxtga utiradi. Istami xoqon O'rta Osiyo, Volga va Shimoliy Kavkaz erlari uchun kurash olib borgan bo'lsa, uning o'g'illari Mug'an hoqon va Taspar xoqonlar Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. Bu paytga kelib



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> May 2025

turklarning ashaddiy dushmani bo'lgan jujanlarning kichik bir qismi Koreya va Shimoliy Xitoyga joylashadi, yana bir kismi esa g'arbga joylashib avarlar nomini oladi.

Shunday qilib, manbalarning ma'lumot berishicha, Bumin hoqonning vorisi bo'lgan Mug'an hoqon janubi-g'arbiy Manchjuriyadagi Mo'g'ul qabilalari bo'lgan kidanlarni va Enisey kirg'izlarini bo'ysundirib Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda Turk eli hukmronligini o'rnatadi. Turklarning g'arbiy yurishlari ayniksa muvaffaqiyatli edi. VI asrning 60-yillari oxirlariga kelib Turk xoqonligi o'sha davrdagi yirik davlatlar bo'lgan Vizantiya, Sosoniylar Eroni, Xitoy kabilarning siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tartibiga qo'shilib, Uzoq Sharqni O'rta er dengizi mamlakatlari bilan bog'lovchi savdo yo'li nazorati uchun kurash olib bordi.

VIII asr turk mualliflari o'zlarining ajdodlari bo'lgan ilk hoqonlarning harbiy yurishlari haqida shunday yozgan edilar: "Ular (hoqonlar - E.B.) sharqda Qodirkon adirlarigacha, g'arbda Temir darvozagacha o'z xalqlarini joylashtirdilar". Qodirkon adirlari bu - Katta Xingan tog'lari, Temir darvoza esa Boysun tog'dagi Bo'zgalaxona dovonida joylashgan.

576 yilga kelib Turk hoqonligi Manchjuriyadan Kimmeriy Bosporigacha, Enisey yuqori oqimlaridan Amudaryo yuqori oqimlarigacha cho'zilgan edi. Shu tariqa turk xoqonlari siyosiy va madaniy merosi O'rta Osiyo va Janubi-Sharqiy Evropa tarixiga sezilarli ta'sir kursatgan dastlabki Evrosiyo imperiyasiga asos solgan edilar.

VI asr 50-yillarining oxirlarida Istami xoqonga eftalitlarga qarshi harbiy harakatlar olib borish uchun qo'lay imkoniyat paydo bo'ladi. Eroy shohi Xusrav I Anushervon (531-579 yy.) eftalitlarga ulpon to'lashni to'xtatib qo'yadi va ularga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi hamda Vizantiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi. Xusrav I siyosiy jixatdan biroz o'nnglanib olgach Turk xoqonligiga eftalitlarga qarshi ittifoq taklif etadi. Ayni vaqtda Vizantiyadan foydalangan Eron eftalitlardan Tohariston, Chag'aniyon, Qobul atrofidagi erlarni tortib oladi.

563 yilda eftalitlarga qarshi shimoldan turklar Choch vodiysiga bostirib kiradilar. Tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. "Shohnoma"da ma'lumot berilishicha, hal qiluvchi jang Buxoro atroflarida bo'lib o'tadi va eftalitlarning Gatifar boshchiligidagi qo'shinlari tor-mor etiladi. Shundan so'ng turklar tezlik bilan xarakat qilib iloji boricha eftalitlarning ko'proq erlarini o'z



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> May 2025

qo'llariga olishga harakat qiladilar. Amudaryoning janubiy sohiligacha bo'lgan erlar, Eron, uning shimolidan Kaspiy sohillarigacha bo'lgan erlar turklar qo'liga utadi. Eftalitlarning mag'lubiyatidan so'ng bevosita ittifoqchilar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'la boshlaydiki, bu holat savdo yo'li nazorati bilan bog'liq edi.

Turklar O'rta Osiyo erlarini bosib olgach Buyuk ipak yo'li katta qismining nazoratini o'z qo'llariga oladilar. Bu yo'lning O'rta Osiyo hududlaridan o'tuvchi qismida asosan So'g'diylar ipak bilan savdo qilishni nazorat qilar edilar. Ipak matolarning asosiy xaridori Vizantiya bo'lib, ipak savdosi So'g'd savdogarlari va turk xoqonlariga katta daromad keltirar edi. IV asrning oxirlaridan boshlab So'g'dda, VI asrda Eron va Vizantiyada o'z ipakchilik ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bu mahsulot sotilishini yanada kiyinlashtiradi.

Hoqonlikning bevosita g'arbiy kismini boshqarib turgan Istami va bosh hoqon Muqan xoqon ipak savdosi mojarosini tinchlik bilan xal qilishga harakat kila boshlaydilar. Istami hoqon o'z qo'l ostidagi So'g'd ixshidiga bu masalani hal etish vazifasini topshiradi. Eronga Turk hoqoni nomidan mashhur So'g'd savdogari va diplomati Maniax boshchiligida elchilar guruhi jo'natiladi. Xusravshoh o'z atrofidagi amaldorlarning maslahatiga kirib, So'g'diylar olib kelgan ipak matolarni sotib olib uni elchilar ko'z o'ngida yoqib tashlaydi. Shundan so'ng Maniax boshqa xaridor -Vizantiya bilan kelishishga xarakat kiladi. 567 yilda u Turk hoqonligining Konstantinopolga yuborgan elchiligiga boshchilik kiladi. Vizantiya ham Eron kabi So'g'd ipak matolariga unchalik extiyoj sezmas edi. Ammo, eroniylarga qarshi turklar bilan ittifoqchilik tarafdori edi. Shu tufayli Turk hoqonligi elchilari imperator saroyida izzat-hurmat bilan ko'tib olinadi.

Ushbu elchilik davomida Turk hoqonligi bilan Vizantiya o'rtasida Eronga qarshi ittifoq tuziladi. Maniax orqaga qaytishda u bilan birga Vizantiya imperatorining elchisi, kilikiyalik Zemarx Turk hoqoni qarorgohiga keladi. Hoqon Zemarxni Tyan-Shandagi "Oltin tog" yakinidagi qarorgohida qabo'l qiladi va turk qo'shinlarining Eronga yurishida yo'l boshlovchilik qilishni taklif etadi. Eron shohining turklar hujumini diplomatik yo'l bilan ko'stashga urinishi hech kandy natija bermadi. Shiddatli hujumlar bilan turklar Gurgonni va bir necha boy shaharlarni egallab, 569 yilda So'g'dga qaytadilar.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> May 2025

Turklarning Eronga ikkinchi marotaba yurishlari 588-589 yillarga to'g'ri keladi. Turklarning Chur Bag'a hoqon (ayrim adabiyotlarda Savg' yoki Shaba deyiladi) boshchiligidagi qo'shini Xurosonga bostirib kiradi. Hirot yonida turk qo'shinlari eroniylarning mashxur Baxrom Chubin boshchiligidagi qo'shinlari bilan to'qnashadi. Bu jangda Baxrom Chubin turk qo'shinlarini tor-mor etib, turklar yo'l boshchisini kamon o'qi bilan xalok etadi. Qayta qarshilik kursatish foydasiz ekanligini anglagan turklar eroniylar bilan sulh, tuzishga majbur bo'ladilar.

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgunlariga qadar turklarning O'rta Osiyodagi mulklari bilan Eron o'rtasidagi chegaralar o'zgarmadi. Arab bosqiniga qadar ipak va boshqa mahsulotlar ortgan karvonlar u yoki bu darajadagi barqarorlik bilan Eron, Xorazm va Volgabuyi orqali g'arbga qatnab turdi.

576 yilda Muqan xoqon vafotidan so'ng xoqonlik taxtiga uning ukasi Arslon To'ba utiradi. U mamlakatning kuch-qudratini mustahkamlash maqsadida Xitoyning Tsi saltanati bilan shartnoma to'zadi. Bundan tashqari u mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish choralarini ham ko'radi. Ammo, 581 yilda Arslon To'ba vafotidan so'ng Turk xoqonlari o'rtasida o'zaro ichki kurashlar avj olib, natijada mamlakat ichida ahvol keskinlashib, iqtisodiy tanazzul boshlanib ketdi.

Aynan mana shunday keskin vaziyat sharoitida turkiy shahzoda Abruy boshchiligida 585-586 yillarda xalq harakati bo'lib o'tdi. Muhammad Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Abruyning qarorgohi Poykand atrofida bo'lib, u boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o'rnatganligi bois bu toifa aholisi Buxoro viloyatidan kuchib, Turkiston va Taroz atrofiga borib o'rnamadilar. Qochib borganlar Turk hoqonidan yordam so'raganlar. Natijada turk sarkardasi Sheri Kishvar boshchiligidagi qo'shinlar qo'zg'olonni bostiradilar va Abruyini o'ldiradilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfséries.com](http://econfséries.com)

20<sup>th</sup> May 2025

2. Hakimova, S., & Galiyev, S. (2025). INGLIZ PARLAMENTING TARIXIY O 'ZGARISHLARI. *Решение социальных проблем в управлении экономике*, 4(4), 157-163.
3. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).
4. Galiyev, S. (2024, September). O 'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).
5. Galiyev, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O 'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.
6. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(11).
7. Ma'rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O'RTA OSIYODA MUSIQA SAN'ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
8. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA'RUF OV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 160-165.
9. MA'RUF OV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O 'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *ACTA NUUZ*, 1(1.2. 1), 23-26.
10. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 6(01), 4-7.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> May 2025

11. Сулаймонович, Қ. С. (2024). СИРДАРЁ ТАРИХИ ЯНГИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИДА. *PEDAGOG*, 7(11), 68-72.
12. Sherzod, M. R. (2024). NEW VIEWS ON ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS LOCATED IN SIRDARYA REGION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 4(2), 1-6.
13. Ма'руфов, S., & Bekmurodov, S. (2024). XONLIKLAR DAVRIDA MUSIQA ILMIGA ILMIGA QARATILGAN E'TIBOR. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
14. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.
15. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАХАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.
16. Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, 3 (18).
17. Akhmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILII YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).
18. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.
19. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.